



## OLYIY TA'LIM MUASSASALARI TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA HEMISNING ROLI

**Qurbonov Fazliddin Botirovich**

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi  
Angren universiteti, O'zbekiston.*

**Annotatsiya** Maqolada mamlakatimizda HEMISning umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy ta'lim, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, HEMIS dasturi.

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayin shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib bormoqda. Bu holatda ta'lim olish holatlarini yangilanishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassalarida masofaviy ta'limlarning yo'lga qo'yilishi bunga bir misol sifatida ko'rishimiz mumkin. Pandemiya davri ko'p yillik shakllangan qadriyatlar, an'analar va tamoyillarning "darz" ketishiga ham olib keldi. Xususan, nufuzli olimlar, xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan yaqin va o'rta istiqbolda kurrai zamin taraqqiyotiga tahdid soladigan xavfxatarlar bo'yicha berilgan prognoz ko'rsatkichlari o'z tasdig'ini topmadi. Aksincha, ular qaytadan ko'rib chiqilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo shu narsa ayon: dunyo bir butunlikda harakat qilmas ekan, inson o'rta tahlilikali vaziyat qurboniga aylanishi hech gap emas. Yagona najot esa to'plangan bilim, shakllangan ko'nikma va orttirilgan xulosalarni yagona maqsad sari yunaltirish, ilm hamda tajribalarni samarali uyg'unlashtira olishdir. Bu esa raqamli dunyoda o'qitish va o'rganish borasida ko'plab pedagogik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ifodalaydi.

Mamlakatimizda songgi yillarda talim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda raqamli talimni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29-apreldagi "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA"(The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan[1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-



oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish; o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

- qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

- robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;

- raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

- g'oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ'ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o'tkazish;

- yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan audio va video materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o'qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish;

- robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, "bulutli" xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish;

- maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash;



- texnologiyalar bo'yicha innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qibo'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, kredit modul tizimi talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Modul — bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yunaltirilgan obekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS - Higher Education



Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv va statistika» axborot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etishdan maqsad:

- OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarining dars mashg'ulotlarga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarini rivojlaniga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda raqamli ta'lim tizimlarimizda HEMISning o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontekstda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual loyihalarida o'rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

#### REFERENCES:

1. Eshmuminovich, T. A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Bphilosophy*, 20.
2. Tursoatov, A. E. (2023). Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari. *Mugallim*, 1(1), 55-59.
3. Tursaotov, A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Science and innovation*, 2(B6), 20-26.
4. Турсоатов, А. Э. (2020). Уқувчи-ёшларни синфдан ташқарида ўтказиладиган машғулотларнинг самарадорлигини ошириш йўллари. *TDPU xabarlari*, 1(9), 121-123.



5. Bobomurod Khujomov, A. T. (2019). Professional Competencies As Integral Qualities Of A Specialist's Personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 39-43.
6. Nizami, X. B. X. (2023). Didactic Principles of Development of Physical Qualities in School Students. *PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3(5), 36-38.
7. Xaytmurodovich, K. B. (2022). Foundation of Modern Struggle. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(12), 14-15.
8. Хужомов, Б. Х. (2020). Мустақил таълим жараёнини такомиллаштиришнинг замонавий усуллари. *Fan-Sportga*, (2), 15-16.
9. Khujomov, B., & Tangriyev, A. (2019). Professional competencies as integral qualities of a specialist's personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(4).
10. Nusratilloevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.
11. Муминова, М. Т., Рахматуллаева, Ш. Б., & Худайкулова, Г. К. (2023). Постдипломное образование: судьба резидентов магистратуры после прохождения специализации.
12. Акбашева, Д. М., Белова, С. К., Васильев, А. А., Везетиу, Е. В., Вовк, Е. В., Дерябин, Н. И., ... & Углицких, О. Н. (2023). НАУКА, ОБЩЕСТВО, ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.
13. Худайкулова, Г. К., Илясова, М. М., Садирходжаева, Н. С., & Исраилов, Ж. Д. (2023). ВНЕДРЕНИЕ НОВОГО ПОДХОДА К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
14. Suyunov, B. (2021). Tezaurus va kompyuter texnologiyalariga doir. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
15. Suyunov, B. T. (2021). Morphology and national-cultural features of medical terms related to color in the uzbek language. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(1), 193-199.
16. Suyunov, B. T. (2021). Etymology of medical terms translated into Uzbek from other languages. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(9), 315-321.
17. Kushakova, M. N., & Salimov, I. (2023). Requirements to the specialist of the Digital Economy. *Conferencea*, 22-28.
18. Кушакова, М. Н. (2023). Этапы распространения высоких цифровых технологий в предприятиях. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 595-598.
19. Kushakova, M. N. (2023). New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 08039). EDP Sciences.
20. Kushakova, M. N. (2022). Management methods for rail transport service personnel. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 881-883.



21. Абдурашитова, Е. В. (2023). Семья-Основной Фактор Воспитания Конкурентно-Способной Личности. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 66-70.
22. Vladimirovna, A. E. (2023). Tasks, The Implementation of Which Will Ensure the Food Security of the Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 16, 73-76.
23. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
24. Abdullajonovna, U. A., Xashimovna, K. D., & Bakhtiyarovna, A. B. (2020). Estimated attitude of students to cultural and leisure activities at the university. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(3), 268-281.
25. Kasimova, D. K. (2017). Problems of Students' Social Adaptation on the Basis of Values Assimilation. *Eastern European Scientific Journal*, (4).
26. Eshnazarova, M., & Nurmatov, B. (2019). The current state and content of the course Methods of calculations. *International Journal of Research Culture Sociyeti*, 3(3), 79-83.
27. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
28. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.